TSUE

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / NOYABR / 11-SON, III-QISM

Google scholar

RePEc RESEARCH PAPERS IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, noyabr.
III-qism

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdikarimova Dinara Rustamxanovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:
Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdikarimova Dinara Rustamxanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich, katta o‘qituvchi (PhD)

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich, Senior Lecturer (PhD)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

XIZMAT KÖRSATIŞ SOHASIDA ÖZARO MANFAATLI ŞERIKÇILIK MUNOSABATLARINI BOŞQARIŞ MEXANIZMLARINI TAKOMILLAŞTIRIŞ (QORAQALPOĞISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) 14
Muratbaeva Aziza Nasir qizi
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ И ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМУ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬЮ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ 21
Матчанова Феруза Абадовна
SANOAT KORXONALARIDA YAŞIL IQTISODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRIŞNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 27
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna
ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ СЕРВИСОВ НА ДОСТУПНОСТЬ БАНКОВСКИХ УСЛУГ ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА 32
Рахимбердиев Исмоил Убайдуллаевич
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЦИФРОВОЙ ИНТЕГРАЦИИ УЧЁТНО-ОТЧЁТНЫХ ПРОЦЕССОВ В КРУПНЫХ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТАХ 37
Кодиров Максим Кучкоралиевич
УТЕЧКА ДАННЫХ КАК АКТУАЛЬНАЯ УГРОЗА ИНФОРМАЦИОННОЙ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ 44
Нажмитдинов Алишер Жамолитдинович
Карабаев Рустам Зафарович
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ŞAROITIDA HUDUDIY LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRIŞDA DIGITAL TWIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIŞNING TAŞKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLAŞTIRIŞ (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA) 50
Sattarova Gulnoza Xabibullayevna
MARKAZIY OSIYO MARKAZIY BANKLARINING ZAXIRA SIYOSATIDAGI ÖZGARIŞLAR: XALQARO ZAXIRALAR VA MAJBURIY ZAXIRA TALABLARI 55
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich
EKSPORTGA YÖNALTIRILGAN KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI TIZIMLI TAŞKIL ETIŞNING KONSEPTUAL MODELI 62
Törayev Şohrux Halimoviç
QURILIŞ SANOATI KORXONALARI İŞLAB ÇIQARIŞ SALOHIYATI TUŞUNÇASINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: KLASSIK, INSTITUTSIONAL VA TIZIMLI YONDAŞUVLAR TAHLILI 67
Abilqosimova Şaxlo Sodiq qizi
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARI ISTE'MOLÇILARINI MOTIVATSIYALAŞDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIŞ YÖNALIŞLARI 72
Jalilov Jamşid Ğanijonoviç,
QURILIŞ MATERIALLARI IŞLAB ÇIQARIŞ SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION SALOHIYATINI INTEGRAL BAHOLAŞ METODIKASI (SURXONDARYO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA) 78
Boboyev Abror Abdusattor öğli
ÖZBEKISTONDA ONLAYN TAVAKKALÇILIKKA ASOSLANGAN ÖYINLARGA AKSIZ SOLIĞINI JORIY ETIŞ: FISKAL SALOHIYAT VA IJTIMOIY SAMARA 87
Qoraboyev Boburjon Umarjonoviç
Karabayev Uluğbek Umaroviç
КЛИЕНТООРИЕНТИРОВАННЫЙ ПОДХОД В УПРАВЛЕНИИ КОММЕРЧЕСКИМ БАНКОМ 91
Омонова Санобар Тожи кизи

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

QIŞLOQ XÖJALIGIDA YAŞIL IQTISODIYOTGA ÖTIŞ: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA KOOPERATSIYA IMKONIYATLARI 96
Daniyarova Feruza Bahriddinovna
HUDUDIY SANOAT RIVOJLANIŞINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLAŞ MEZONLARI 100
Törayeva Sönajon Kamiljon qizi
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ПОВЫШЕНИЯ РЕСУРСНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ: ИНСТРУМЕНТЫ СТИМУЛИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗ ДО 2030 ГОДА 104
Утбасаров Дониёржон Бахтиёрович
TEXNIKUMLAR INFRATUZILMASI NEGIZIDA «MIKRO-SANOAT ZONALARI» (MINI-ZAVODLAR) TAŞKIL ETIŞ: DUAL TA'LIM VA INVESTITSIYA UYĞUNLIGI 114
Ergashev Azamat Omonoviç
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН И АНАЛИЗ ЕГО ОСНОВНЫХ ФАКТОРОВ 118
Юсупову Раушан Эдилбековну
ASALARIÇILIK XÖJALIKLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLAŞ VA BOŞQARIŞNING ZAMONAVIY YONDAŞUVLARI 123
Yormatov Ilmidin Toşmatoviç
Suyarkulov Şerzod Şeraliyeviç,

ASALARIÇILIK XÖJALIKLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLAŞ VA BOŞQARIŞNING ZAMONAVIY YONDAŞUVLARI

Yormatov Ilmidin Toşmatoviç
Farğona davlat texnika universiteti
“Menejment va marketing” kafedrasi i.f.n. professori v.b.
ORCID: 0000-0003-2286-9404
E-mail: ilmidin.yormatov@ferpi.uz

Suyarkulov Şerzod Şeraliyeviç,
Farğona davlat texnika universiteti, Işlab çiqarışda boşqaruv fakulteti,
Menejment, Magistratura 1-kurs
ORCID: 0009-0008-6943-0275
e-mail: sherzod18@gmail.com

Annotatsiya. Özbekiston asalariçilik xöjaliklarining iqtisodiy samaradorligini baholaş va boşqarişning zamonaviy yondaşuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotning axborot bazasini Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasining 2010–2024-yillardagi asal işlab çiqarış körsatkiçlari, 2025-yil boşidagi asalari oilalarining tarkibi, 2025-yil yanvar–iyun oylaridagi hududiy statistik ma’lumotlar, amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda özbek, rus va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari taşkil etgan. Tadqiqot jarayonida dinamik, tarkibiy, qiyosiy va indikatorli tahlil usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalarga köra, 2010–2024-yillarda asal işlab çiqarış hajmi 3,2 ming tonnadan 16,6 ming tonnagacha oşgan. Şu bilan birga, xöjalik faoliyati kölamining kengayişi öz-özidan yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlamasligi aniqlangan. Iqtisodiy samaradorlik darajasi işlab çiqarış tannarxi, mehnat unumdorligi, biologik barqarorlik, sotuv kanallari, kooperatsiya darajasi va raqamli yeçimlarning iqtisodiy qaytimiga boğliqligi asoslangan. Olingan natijalar asosida asalariçilik xöjaliklari darajasida işlab çiqarış, xarajatlar, mehnat, biologik barqarorlik, bozor va raqamlaştiriş körsatkiçlarini özaro birlaştiruvçi kompleks boşqaruv yondaşuvi taklif etilgan.

Kalit sözlar: asalariçilik, iqtisodiy samaradorlik, rentabellik, tannarx, mehnat unumdorligi, asalari oilasi, texnik samaradorlik, raqamlaştiriş, kooperatsiya, çanglatiş xizmati.

Аннотация. Проведён анализ современных подходов к оценке и управлению экономической эффективностью пчеловодческих хозяйств Узбекистана. Информационную базу исследования составили статистические данные Национального комитета по статистике Республики Узбекистан об объёмах производства мёда за 2010–2024 годы, сведения о структуре пчелиных семей на начало 2025 года, региональные показатели за январь–июнь 2025 года, действующие нормативно-правовые акты, а также научные труды узбекских, российских и зарубежных исследователей. В процессе исследования применены методы динамического, структурного, сравнительного и индикаторного анализа. Полученные результаты свидетельствуют об увеличении объёма производства мёда с 3,2 тыс. тонн до 16,6 тыс. тонн за 2010–2024 годы. Вместе с тем установлено, что расширение масштабов хозяйственной деятельности само по себе не обеспечивает повышения экономической эффективности. Обоснована зависимость уровня экономической эффективности от себестоимости производства, производительности труда, биологической устойчивости, каналов сбыта, степени кооперации и экономической отдачи от внедрения цифровых решений. На основе полученных результатов предложен комплексный подход к управлению пчеловодческими хозяйствами, объединяющий производственные, затратные, трудовые, биологические, рыночные показатели и показатели цифровизации.

Ключевые слова: пчеловодство, экономическая эффективность, рентабельность, себестоимость, производительность труда, пчелиная семья, техническая эффективность, цифровизация, кооперация, услуги по опылению.

Abstract. Modern approaches to assessing and managing the economic efficiency of beekeeping enterprises in Uzbekistan are analyzed. The information base of the study comprises statistical data on honey production provided by the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan for 2010–2024, information on the structure of bee colonies at the beginning of 2025, regional statistical indicators for January–June 2025, applicable regulatory and legal documents, and scientific studies conducted by Uzbek, Russian, and international researchers. Dynamic, structural, comparative, and indicator-based analytical methods were employed. The findings indicate that honey production increased from 3.2 thousand tons to 16.6 thousand tons during 2010–2024. However, the expansion of beekeeping operations does not necessarily lead to higher economic efficiency. The study establishes that economic efficiency depends on production costs, labor productivity, biological stability, distribution channels, the degree of cooperation, and the economic returns from implementing digital solutions. Based on the findings, an integrated management approach is proposed for beekeeping enterprises, combining production, cost, labor, biological, market, and digitalization indicators.

Keywords: beekeeping, economic efficiency, profitability, production costs, labor productivity, bee colony, technical efficiency, digitalization, cooperation, pollination services.

KIRIŞ

Asalariçilikni faqat asal yetiştiruvçi tarmoq sifatida baholaş uning iqtisodiy mazmunini çeklaydi. Xöjalik asal, mum, propolis, gul çangi, ona ari suti va asalari paketi kabi mahsulotlarni bozorga çiqariş bilan birga, ekinlarni çanglatiş orqali boşqa tarmoqlarda ham qöşimça qiymat yaratadi. Şu sababli haqiqiy iqtisodiy natija faqat sotilgan asal miqdorida emas, balki daromad manbalari, resurs sarfi va biologik holatning özaro nisbatida namoyon böladi. Demak, “köproq oila – köproq asal – yuqori samaradorlik” zanjiri har doim ham bir xil iqtisodiy natijani ifodalamaydi.

Özbekistonda tarmoqning institutsional rivojlanişi 2017-yildagi PQ-3327-son qaror bilan yangi bosqiçga ötdi. Unda boşqaruv tizimini takomillaştiriş, naslçilik işlarini ilmiy asosda taşkil etiş, zamonaviy texnologiyalarni joriy qiliş, mahsulot turlarini kengaytiriş va eksport salohiyatini oşiriş vazifalari belgilangan [1]. 2023-yildagi 239-son qarorda esa çanglatiş xizmatini şartnoma asosida rivojlantirişga alohida e’tibor qaratilgan; 200 ming gektar paxta maydonida 400 ming asalari oilasidan foydalaniş prognoz qilingan [2]. Milliy statistika ma’lumotlari tarmoqning işlab çiqarış bazasi kengayganini körsatadi. Asal işlab çiqarış 2010–2024-yillarda 5,24 baravar oşgan [3]. Şu bilan birga, bunday ösiş foyda, tannarx yoki aktivlar rentabelligi ham xuddi şu darajada yaxşilanganini anglatmaydi.

2025-yil 1-yanvar holatiga köra, respublikada 742,5 ming asalari oilasi qayd etilgan. Ularning 67,6 foizi dehqon va tomorqa xöjaliklarida saqlangan [4]. Tarmoqda kiçik işlab çiqaruvçilar uluşi yuqori bölgani uçun boşqaruv, hisob, texnologiya va kooperatsiya vositalari xöjalik hajmiga mos tanlanişi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Mahalliy adabiyotlarda asalariçilik samaradorligi biologik va texnologik jarayonlar bilan uzviy boğliq holda talqin qilinadi. V.D. Brovarskyi va Sh.R. Suyarkulov asalari oilalarini köpaytiriş, parvarişlaş, hududiy şaroit va mahsulot oliş jarayonlarini batafsil yoritadi [6].

O.D. Djurabaev va J.Kh. Rashidov asalariçilikni boşqarişda jarayonli yondaşuv, xarajatlarni kelib çiqiş joylari böyiça nazorat qiliş va xöjaliklararo hamkorlikni kuçaytirişni taklif etadi [7]. Ularning 2012–2019-yillar ma’lumotlari asosidagi modelida mehnat va ozuqa xarajatlari yalpi foyda bilan boğlangan. Kuzatuvlar soni çeklangani bois bu natijalarni umumiy qonuniyatdan köra, xöjalik darajasidagi mikro-ma’lumotlar bilan tekşirilişi lozim bölgan ilmiy gipoteza sifatida qabul qiliş maqsadga muvofiqdir.

Rus iqtisodiy maktabida A.G. Chepik asalariçilik samaradorligini iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarni birlaştiruvçi köp darajali tizim sifatida köradi [8]. Keyingi tadqiqotlarda ham Rossiya asalariçiligining raqobatbardoşligi xom asal hajmidan taşqari standartlaştiriş, qayta işlaş, marketing va tarmoq taşkilotlari hamkorligiga boğliqligi qayd etiladi [9].

Xorijiy tadqiqotlar xöjalik hajmi bilan iqtisodiy samaradorlik örtasidagi boğliqlik turli omillar ta’sirida şakllanişini körsatadi. Isparta viloyatidagi 74 ta xöjalik böyiça tahlilda korxona kattalaşgani sari bir uyaga töğri keladigan xarajatlar pasaygan [10]. Yozgatda esa xöjalik kölami ortişi bilan asal mahsuldorligining pasayişi kuzatilgan [11]. Bu natijalar bir-birini töldiradi: yiriklaşiş doimiy xarajatlarni kamaytirişi mumkin, biroq oilalar soni ortgani sari biologik nazorat va parvariş sifatini ta’minlaş murakkablaşadi.

Van va Erzincan [12], Efiopiya [13] xöjaliklari böyiça tadqiqotlar texnik samaradorlikni resurslardan foydalaniş nuqtayi nazaridan baholaydi; Efiopiya misolida tajriba, ta'lim, kooperativ a'zoligi va maslahat xizmatlari muhim omillar sifatida ajratilgan (1-jadval). Umumiy xulosa şuki, yangi uskunalar bilan bir qatorda bilim, boşqaruv sifati va hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega.

Raqamlaştirişga oid tadqiqotlar ham samaradorlikni yangi yönalişda baholaş imkonini bermoqda. M. Alleri va hammualliflar 2015–2023-yillardagi 201 ta ilmiy işni umumlaştirib, aniq asalariçilikni uya vazni, harorat, namlik, parvoz faolligi va boşqa körsatkiçlarni masofadan kuzatişga asoslangan boşqaruv usuli sifatida tavsiflaydi.

Polşada 949 nafar asalariçi va 30 nafar ekspert iştirokidagi tadqiqotda respondentlarning 28,6 foizi raqamli texnologiyalardan foydalangani aniqlangan. FAO tavsiyalarida ham elektron uya tarozisi, raqamli hisob jurnali va masofaviy kuzatuv vositalarining foydasi e'tirof etiladi, biroq kiçik va oilaviy xöjaliklarda har bir yeçimning iqtisodiy maqbulligini alohida baholaş zarurligi ta'kidlanadi. Özbekiston tadqiqotlarida ham iqlim xatarlari, raqamli monitoring va hududiy texnologik ta'minot masalalari özaro boğliq holda körilmoqda [15].

1-jadval

Asalariçilik samaradorligini baholaş böyiça ayrim ilmiy yondaşuvlar[1]

Muallif / hudud	Usul va ma'lumot	Asosiy natija	Özbekiston uçun amaliy ahamiyati
Djurabaev, Rashidov (Özbekiston)	2012–2019-yillar; xarajatlar va foyda tahlili	Mehnat va ozuqa xarajatlarini nazorat qiliş zarur	Mehnat siğimi, hisob va kooperatsiyani birga boşqariş
Sert, Demircan (Turkiya)	74 ta xöjalik, 3 ta hajm guruhi	Kölam oşganda bir uyaga xarajat kamayişi mumkin	Miqyos samarasini tannarx orqali tekşiriş
Yıldız va boşq. (Turkiya)	Yozgat xöjaliklari sörovi	Kölam oşganda hosildorlik pasayişi kuzatilgan	Katta xöjalikda biologik nazoratni izçil ta'minlaş
Tarekegn, Ayele (Efiopiya)	360 ta xöjalik, stoxastik çegara	Örtaça texnik samaradorlik 77%; kooperativ va ta'lim muhim	Texnologiya bilan birga bilim va maslahat xizmatlari

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikkilamçi statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslangan. Asosiy statistik manba sifatida Milliy statistika qömitasining SIAT tizimidagi "Asal işlab çiqariş" körsatkiçi olingan. U barça toifadagi xöjaliklar – fermer, dehqon va tomorqa xöjaliklari hamda qişloq xöjaligi taşkilotlarini qamrab oladi [3].


Hududiy tarkibni baholaşda viloyatlarning 2024-yilgi işlab çiqariş hajmi respublika jami hajmiga nisbatan hisoblangan. Bu körsatkiç hududlar rentabelligini emas, balki işlab çiqarişning hududiy konsentratsiyasini ifodalaydi, çunki xarajatlar va asalari oilalari soni böyiça bir xil davrga tegişli töliq oçiq ma'lumotlar mavjud emas. Xöjalik darajasidagi baholaşda tavsiya etilgan körsatkiçlar (2-jadval) birgalikda körib çiqilgan. Şu tariqa "köproq asal" va "yuqori iqtisodiy samaradorlik" tüşunçalari metodik jihatdan ajratilgan.

Qiyosiy tahlilda xorijiy tannarx yoki rentabellik qiymatlari Özbekiston şaroitiga töğridan-töğri köçirilmagan; ular samaradorlikni ölçaş usuli va boşqaruv omillarini anıqlaş uçun metodik dalil sifatida işlatilgan. Tadqiqotning asosiy çeklovçi jihati – Özbekiston xöjaliklari böyiça tannarx, mehnat sarfi, foyda va aktivlar qiymatini yagona metodika asosida qamrab oluvçi oçiq mikro-ma'lumotlar bazasining mavjud emasligidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy statistika ma'lumotlari Özbekistonda asal işlab çiqariş uzoq muddatda sezilarli darajada kengayganini körsatadi. 2010-yildagi 3171,9 tonna hajm 2024-yilda 16 631,6 tonnaga yetgan; mutlaq ösiş 13 459,7 tonna, umumiy ösiş 424,3 foiz, örtaça yillik ösiş sur'ati esa 12,6 foizni taşkil etgan [3]. Dinamika bir tekis keçmagan: 2016-yildagi 12 050 tonnadan söng 2017-yilda 11 737,6 tonnagacha qisqariş kuzatilgan, keyingi yillarda esa ösiş qayta tiklangan.

1 Manba: [10]–[15] manbalari asosida mualliflar tomonidan işlab çiqilgan.



1-rasm. Özbekistonda asal işlab çiqarış dinamikasi, 2010–2024-yillar[2]

2024-yil hududiy kesimida eng katta işlab çiqarış Buxoro viloyatida qayd etilgan – 2582,8 tonna yoki respublika hajmining 15,5 foizi. Keyingi örinlarda Qaşqadaryo (9,7 foiz), Farğona (9,3 foiz), Jizzax va Namangan (har biri qariyb 8,3 foiz) turadi [3]. Şu bilan birga, yuqori hududiy uluş alohida xöjaliklarning yuqori rentabelligini töliq ifodalamaydi: yakuniy hajm asalari oilalari soni, ozuqa bazasi, iqlim va xöjaliklar miqdorining yiğindi natijasidir.

2025-yil boşidagi xöjalik tarkibi tarmoq boşqaruvi uçun muhim xulosani beradi: 742,5 ming asalari oilasining 67,6 foizi dehqon va tomorqa xöjaliklariga, 15,2 foizi fermer xöjaliklariga, 17,1 foizi qişloq xöjaligi taşkilotlariga töğri keladi [4]. Demak, yangi boşqaruv va raqamli yeçimlar avvalo kiçik xöjaliklarning moliyaviy imkoniyatlari, malakasi va xizmatlardan foydalaniş qulayligiga mos bölişi kerak.

2025-yil yanvar–iyun oylarida respublikada 6,6 ming tonna asal yetiştirilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,8 foiz ösiş qayd etilgan [5].

Iqtisodiy samaradorlikni xöjalik darajasida olti guruh körsatkiç bilan kuzatiş maqsadga muvofiq: mahsuldorlik, xarajatlar, mehnat unumdorligi, biologik barqarorlik, bozor natijalari va raqamli boşqaruv.

2-jadval

Asalariçilik xöjaligi iqtisodiy samaradorligining tavsiya etilayotgan körsatkiçlari

Yönaliş	Körsatkiç	Hisoblaş mazmuni	Boşqaruv qarori
Mahsuldorlik	Asal, kg/oila	Sotişga yaroqli asal / örtaça faol oilalar	Ozuqa bazasi va parvariş sifatini baholaş
Tannarx	Söm/kg	Töliq işlab çiqarış xarajati / sotilgan mahsulot	Xarajatlar zanjiridagi ortiqça sarfni anıqlaş
Rentabellik	%	Foyda / tuşum × 100	Narx, assortiment va xarajat siyosatini baholaş
Mehnat unumdorligi	kg/işçi-kun	Mahsulot / mehnat sarfi	Mexanizatsiya va iş rejasini tanlaş
Biologik barqarorlik	Nobud böliş, %	Nobud bölgan oilalar / davr boşidagi oilalar × 100	Kasallik va qişlatiş riskini boşqariş
Bozor samarasi	Örtaça realizatsiya narxi; kanal uluşi	Tuşum va sotuv kanallari böyiça hisob	Töğridan-töğri, kooperativ yoki ulgurji kanalni tanlaş
Raqamli qaytim	ROI yoki qoplaş muddati	Tejalgan xarajat + oldi olingan zarar – texnologiya xarajati	Sensor yoki dasturiy yeçimni tanlaş

2 Manba: Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi SIAT ma’lumotlari [3] asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Tavsiya etilgan körsatkiçlar orasida tannarx va mehnat unumdorligi Özbekiston şaroitida alohida ahamiyatga ega. O.D. Djurabaev va J.Kh. Rashidov mehnat xarajatlarini foydaga ta'sir qiluvçi muhim yönalişlardan biri sifatida körsatgan [7]. Kiçik xöjaliklarda oila a'zolarining mehnati köpinça xarajat sifatida qayd etilmaydi, natijada mahsulot tannarxi hisob-kitoblarda past körinişi mumkin. Iqtisodiy tahlilda bunday mehnat bozor iş haqi yoki muqobil daromad asosida şartli qiymat bilan hisobga olinişi kerak. Biologik barqarorlik ham iqtisodiy körsatkiçlar bilan uzviy boğliq holda baholanişi lozim.

Natijalar "xöjalik hajmi – samaradorlik" munosabatini köp omilli boğliqlik sifatida talqin qiliş zarurligini körsatadi. Turkiyaning Isparta va Yozgat tajribalari bu munosabatning turli jihatlarini körsatadi [10], [11]. Yiriklaşiş logistika, uskuna va doimiy xarajatlarda miqyos samarasini yaratadi, şuningdek, individual nazorat, işçi sifati va ozuqa bazasini boşqarişga qöşimça talablar qöyadi. Şuning uçun maqbul hajm – "eng köp oila" emas, balki mavjud resurslar bilan sifatli boşqariş mumkin bölgan hajmdir.

Özbekiston uçun ikkinçi muhim masala – kiçik xöjaliklarning ustunligidir. Alohida xöjalik uçun laboratoriya, qadoqlaş liniyasi, ombor, marketing yoki elektron savdo kanaliga mustaqil sarmoya kiritişning iqtisodiy maqbulligi xöjalik imkoniyatlariga boğliq. Kooperatsiya qimmat xizmatlardan birgalikda foydalaniş va doimiy xarajatlarni iştirokçilar örtasida taqsimlaş imkonini beradi [8].

Uçinçi masala – raqamlaştirişning iqtisodiy mazmunidir. Iqtisodiy nuqtayi nazardan asosiy savol "qança ma'lumot yiğildi?" emas, balki "şu ma'lumot qaysi qarorni yaxşiladi?" bölişi kerak. Elektron tarozi ortiqça safarlarni kamaytirsa yoki sensor ozuqa tanqisligini erta aniqlab, nobud bölişning oldini olsa, texnologiya real iqtisodiy foyda yaratadi; ma'lumotlardan samarali foydalaniş esa qöşimça xarajatlarning iqtisodiy qaytimini ta'minlaydi. Özbekistonda buni bosqiçma-bosqiç joriy etiş mumkin: avval standartlaştirilgan hisob, keyin elektron tarozi va ob-havo ma'lumotlari, söng tanlangan oilalarda sensorlar, zarurat tuğilganda esa integratsiyalaşgan platforma. Har bir keyingi bosqiç oldingi bosqiçning iqtisodiy natijasi bilan asoslanişi kerak.



2-rasm. Asalariçilik xöjaligi iqtisodiy samaradorligini boşqarişning taklif etilayotgan sikli[3]

Taklif etilayotgan boşqaruv sikli hisob va ma'lumotlardan boşlanadi. Xöjalik kamida asalari oilalari harakati, işlab çiqariş, mehnat va xarajatlar, biologik holat hamda sotuv böyiça muntazam qayd yuritişi kerak. Keyin natijalar tahlil qilinadi, risk va bozor vaziyati baholanadi, boşqaruv qarori tanlanadi, uning iqtisodiy qaytimi tekşiriladi va keyingi mavsum rejasi yangilanadi.

3 Manba: ilmiy adabiyotlar [15]–[17] umumlaştirilishi asosida mualliflar taklifi.

3-jadval

Xöjalik hajmiga mos boşqaruv ustuvorliklari[4]

Xöjalik turi	Asosiy muammo	Birinçi navbatdagi yeçim	Samaradorlik mezoni
Kiçik (oilaviy/tomorqa)	Hisob yuritişni tizimlaştiriş, sotuv kanallarini kengaytiriş	Sodda hisob jurnali, birgalikdagi laboratoriya va qadoqlaş, töğridan-töğri savdo	Sof daromad/oila; sotuv narxi; mehnat vaqti
Örta xöjalik	Mavsumiy mehnat, logistika, köçiriş xarajatlarini maqbullaştiriş	İş rejalari, elektron tarozi, transport va uskunalardan kooperativ asosda foydalaniş	kg/işçi-kun; tannarx; transport xarajati
Yirik/tijoriy xöjalik	Nazoratni takomillaştiriş, ma'lumotlarni tizimlaştiriş	Raqamli monitoring, bölimlar kesimida xarajatlar hisobi, sifat tizimi va diversifikatsiya	Rentabellik; nobud böliş; ROI; şartnoma bajarilişi
Kooperativ/klaster xizmatlari	İştirokçilar manfaatlarini muvofiqlaştiriş	Şaffof tarif, laboratoriya, qadoqlaş, marketing va logistika platformasi	Xizmat birligi tannarxi; a'zolar sotuv narxidagi ustama; takroriy foydalaniş

3-jadvaldan körinadiki, xöjaliklarning hajmi va iqtisodiy imkoniyatlariga mos "zamonaviy texnologiya"larni tavsiya etiş maqsadga muvofiq. 20–30 oilali xöjalik uçun töliq sensorli tizimning qoplaş muddati uzoq bölişi mumkin, biroq tartibli hisob va birgalikdagi qadoqlaş tezroq samara beradi. Yuzlab oilaga ega xöjalikda esa rahbarning har bir uyani şaxsan nazorat qilişi murakkablaştiradi va masofaviy monitoring boşqaruv ehtiyojiga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot Özbekiston asalariçiligida işlab çiqariş bazasi sezilarli kengayganini körsatdi: 2010–2024-yillarda asal işlab çiqariş 3171,9 tonnadan 16 631,6 tonnaga oşib, 5,24 baravar köpaydi. 2024-yilda Buxoro, Qaşqadaryo va Farğona viloyatlari yuqori işlab çiqariş uluşiga ega böldi. Şu bilan birga, 2025-yil boşida asalari oilalarining 67,6 foizi dehqon va tomorqa xöjaliklarida jamlangani kiçik işlab çiqaruvçilar uçun mos boşqaruv yeçimlarini işlab çiqişni talab qiladi.

Birinçidan, iqtisodiy samaradorlikni asal hajmi yoki oilalar soni bilan bir qatorda boşqa iqtisodiy körsatkiçlar asosida ham baholaş maqsadga muvofiq. Bir oilaga töğri keladigan mahsulot miqdori, 1 kg mahsulot tannarxi, sotuv rentabelligi, mehnat unumdorligi, biologik yöqotişlar, örtaça sotuv narxi va texnologiyaga kiritilgan investitsiyaning qaytimi birgalikda kuzatilişi kerak.

İkkinçidan, hisob yuritiş modernizatsiyaning iqtisodiy jihatdan maqbul va zarur bosqiçidir. Kiçik xöjaliklarda murakkab dasturdan oldin standartlaştirilgan mavsumiy qoğoz yoki elektron jurnaldan foydalaniş yetarli; raqamlaştiriş esa bosqiçma-bosqiç va iqtisodiy qaytim asosida amalga oşirilişi lozim.

Uçinçidan, kiçik xöjaliklarda kooperatsiyani avvalo xizmatlar kooperatsiyasi şaklida rivojlantiriş maqsadga muvofiq. Bu doimiy xarajatlarni taqsimlaş hamda bozorga çiqişni yengillaştiriş imkonini beradi.

Törtinçidan, çanglatiş xizmati mustaqil daromad yönalişi sifatida hisobga olinişi kerak. Xizmatdan tuşgan tuşumdan köçiriş, transport, mehnat, biologik va pestitsid risklari bilan boğliq xarajatlar ayrilgandagina uning sof iqtisodiy hissasi töğri baholanadi.

Beşinçidan, keyingi tadqiqotlarda Özbekistonning kamida uçta hududida kiçik, örta va yirik asalariçilik xöjaliklari böyiça panel ma'lumotlar yiğiş zarur. Texnik samaradorlik va foyda-xarajat nisbatini empirik baholaş boşqaruv tavsiyalarini umumiy mulohazalardan aniq, ma'lumotlarga tayangan qaror qabul qiliş vositasiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi «Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3327-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/-3380814
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi «Asalarichilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 239-son qarori. – URL: https://www.lex.uz/uz/acts/-6490369
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. SIAT: «Asal ishlab chiqarish» (2010–2024-yillar), indikator kodi 1.03.04.0020 [Elektron resurs]. – URL: https://siat.stat.uz/data/499/?lang=uz
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonda qancha asalari oilalari bor? [Elektron resurs]. – 2025-yil 29-iyul. – URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/62907-o-zbekistonda-qancha-asalari-oilalari-bor

4 Manba: tadqiqot natijalari asosida mualliflar taklifi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda 6,6 ming tonna asal yetishtirilgan [Elektron resurs]. – 2025-yil 10-sentabr. – URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/63805-zbekistonda-6-6-ming-tonna-asal-etishtirilgan-2
6. Brovarskyi, V. D. Asalarilarni ko‘paytirish va parvarishlash / V. D. Brovarskyi, Sh. R. Suyarkulov. – Toshkent : Baktria Press, 2021. – 432 b. – URL: https://lib.renessans-edu.uz/uz/unilibrary?page=1263&resource_type_id=2
7. Djurabaev, O. D. The main directions of effective management and development of the beekeeping industry / O. D. Djurabaev, J. Kh. Rashidov // E3S Web of Conferences. – 2021. – Vol. 282. – Art. 02002. – DOI: 10.1051/e3sconf/202128202002. – URL: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202128202002
8. Чепик, А. Г. Повышение эффективности развития пчеловодства в Российской Федерации: теория, методология и практика : автореф. дис. ... д-ра экон. наук / А. Г. Чепик. – 2007. – URL: https://economy-lib.com/povyshenie-effektivnosti-razvitiya-pchelovodstva-v-rossiyskoy-federatsii
9. Никулина, О. В. Анализ развития отрасли пчеловодства в России: выявление проблем и поиск резервов для повышения конкурентоспособности на международной арене / О. В. Никулина, М. А. Ледовской // Региональная экономика и управление. – 2022. – № 1 (69). – Ст. 6911. – DOI: 10.24412/1999-2645-2022-169-11. – URL: https://doi.org/10.24412/1999-2645-2022-169-11
10. Sert, D. Economic Analysis of Beekeeping Farms: A Case Study of Isparta Province in Turkey / D. Sert, V. Demircan // Scientific Papers Series Management, Economic Engineering in Agriculture and Rural Development. – 2018. – Vol. 18, No. 2. – P. 397–402. – URL: https://doaj.org/article/5c700d05b5d341ffb2f411f31b0f2667
11. Yıldız, A. K. Technical and Socio-Economic Beekeeping Enterprises of Yozgat Province Investigation of Status / A. K. Yıldız, M. Ayyıldız, B. Ayyıldız, S. Arslan // Turkish Journal of Agriculture – Food Science and Technology. – 2022. – Vol. 10, No. 5. – P. 846–852. – DOI: 10.24925/turjaf.v10i5.846-852.4931. – URL: https://doi.org/10.24925/turjaf.v10i5.846-852.4931
12. Aşkan, E. Increasing Honey Production Effectiveness in Erzincan and Van Provinces / E. Aşkan // Sustainability. – 2023. – Vol. 15, No. 9. – Art. 7524. – DOI: 10.3390/su15097524. – URL: https://doi.org/10.3390/su15097524
13. Tarekegn, K. Impact of improved beehives technology adoption on honey production efficiency: empirical evidence from Southern Ethiopia / K. Tarekegn, A. Ayele // Agriculture & Food Security. – 2020. – Vol. 9. – Art. 7. – DOI: 10.1186/s40066-020-00258-6. – URL: https://doi.org/10.1186/s40066-020-00258-6
14. Paudel, A. Economic profitability and efficiency of honey production from the Asian honeybee (Apis cerana) in the mid-hills of Nepal / A. Paudel, N. P. Tiwari, S. Dhungana, L. L. Britton // Journal of Agriculture and Food Research. – 2025. – Vol. 22. – Art. 102153. – DOI: 10.1016/j.jafr.2025.102153. – URL: https://doi.org/10.1016/j.jafr.2025.102153
15. Farmonov, J. Z. Regional development features and technological supply indicators of the beekeeping industry in the region / J. Z. Farmonov, S. S. Bazarov // The Innovation Economy. – 2026. – Vol. 2, No. 02. – URL: https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/1316



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 11/3

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz